O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorida *"milliy yoki irqiy adovat zamirida"* tushunchasiga: "Boshqa millatga, irqqa mansub shaxsga, uning turmush tarziga, madaniyatiga, urf-odatlariga, oila tutumiga nisbatan g'ayirlik yoki nafrat tuyg'ulari bilan yoxud millatlararo, irqlararo adovat yoki nifoq solish", – deb tushuntirish berilgan (Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2004), lekin "*irqiy yoki milliy dushmanlik yoxud adovat zamirida*" iborasiga jinoyat qonunchiligimizda ta'rif mavjud emas.

Jinoyat qonunida turli iboralarning qo'llanilishi ular uchun jinoiy-huquqiy ta'riflarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Qonunchilikda "milliy dushmanlik", "milliy adovat", "millatlararo adovat", "milliy kamsitish", "irqiy adovat" iboralarining yagona huquqiy ta'rifi mavjud emas.

U. Zakirova jinoyat qonunchiligi normalarini unifikatsiya qilish maqsadida *"milliy yoki irqiy adovat zamirida", "diniy taassublar zamirida", "millatlararo yoki irqiy adovat zamirida"* kabi turli yondashuvdagi atamalarni yagona *"milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat yoxud nafrat zamirida"* degan atamaga (Zakirova, 2023) almashtirishni taklif etadi.

X. Abzalova ilmiy tadqiqotlarida 97-modda 3-qismini "*milliy, siyosiy, mafkuraviy yoki irqiy adovat yoxud diniy taassublar zamirida*" deb nomlashni taklif etadi (Abzalova, 2020).

Shuningdek U. Zakirova jinoyat kodeksida adovat, dushmanlik, taassub kabi atamalarni qo'llashda yagona yondashuvning mavjud emasligi ta'kidlab, qonun chiqaruvchi milliy, irqiy, diniy adovat, taassub, dushmanlik motivlarini qaysi mezonlarga ko'ra differensiatsiya qilganligi tushunarsiz ekanligiga to'xtaladi, mazkur motivlarni unifikatsiya qilish (birxillashtirish) taklif etadi.

Biz ham yuqoridagi olimlarini fikrlariga qo'shilgan holda, huquqni qo'llash amaliyotini birxillashtirish va sud-tergov organlariga qulaylik yaratish maqsadida JK 56-moddasi 2-qismi "j" bandini "milliy, irqiy, ijtimoiy adovat yoki diniy taassublar zamirida" tarzida nomlash va ushbu iborasini JK Maxsus qismi normalaridagi barcha holatlarga nisbatan bir xilda ishlatish maqsadida JK tegishli moddalariga o'zgartishlar kiritish lozim deb hisoblaymiz.

Shuningdek, U. Zakirova JK Maxsus qismida garchi milliy, irqiy, diniy adovat birga bir qismlarda, bandlarda ko'rsatilgan bo'lsa-da, har bir jinoyat doirasida faqat aniqlangan va isbot qilingan jinoyat motivi bo'yicha qilmish kvalifikatsiya qilinishi va aybdor shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyatda qancha jinoyat motivi ko'p bo'lsa, jazo ham shuncha og'ir sanksiya doirasida tayinlanishi deb zarur hisoblaydi.

O'zbekiston Respublikasi JK 173-moddasi ikkinchi qismi "b" bandida keltirilgan mulkni


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish atrofdagilar uchun xavfli usulda sodir etilsa, jazoni og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi. M. Rustamboyev atrofdagilar uchun xavfli usulda deganda, mol-mulkni nobud qilish yoki unga zarar yetkazishga qaratilgan harakatlarni sodir etishda katta tabiiy ofat va vayronalik yuz berishi xavfini keltirib chiqarish va insonlarning qurbon bo'lishi, inson sog'lig'i uchun xavfli holatning vujudga kelishiga sabab bo'luvchi usullardan foydalanish tushuniladi deb yozadi (Rustamboyev, 2018). A. Otajonov atrofdagilar uchun chinakam xavf tug'diruvchi usul deb izohlaydi.

Qonun chiqaruvchi Jinoyat kodeksi 56-moddasida ko'pchilik uchun xavfli bo'lgan usulda jinoyat sodir etishni jazoni og'irlashtiruvchi holat deb hisobga oladi va unga o't qo'yish, portlatish, suv bostirish va odamlar halok bo'lishi yoki ko'p miqdorda zarar yetkazish xavfini tug'diradigan boshqa usullar deb ta'riflaydi. JK 97-modda 2-qismi "d" bandi, JK 156-modda 3-qismi "a" bandlarida "boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo'lgan usulda" atamasi qo'llanilgan, Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli qarorida *"boshqa shaxslar hayotiga ham chinakam xavf tug'diruvchi usul"* deb odamlar gavjum joylarda o'q otish, portlatish, o't qo'yish, jabrlanuvchidan o'zga odamlar ham foydalanadigan suvni va ovqatni zaharlash, gaz vositasida bo'g'ish va h.k.lar tushuniladi

1-jadval

**Jinoyat sodir etishdagi xavfli usullarning turlari, huquqiy asoslari va ta'rifi**

| Nomlanishi | Qo'llangan norma | Ta'rifi | Ta'rif manbasi |
|---|---|---|---|
| Ko'pchilik uchun xavfli bo'lgan usulda | JK 56-m 1-qismi "e" bandi | o't qo'yish, portlatish, suv bostirish va odamlar halok bo'lishi yoki ko'p miqdorda zarar yetkazish xavfini tug'diradigan boshqa usullar | JK 8-bo'limning o'n yettinchi xatboshi |
| Atrofdagilar uchun xavfli usulda | JK 173-modda 2-qismi "b" bandi<br>229-5-modda 4-qismi | katta tabiiy ofat va vayronagarchilik yuz berishi xavfini keltirib chiqarish va insonlarning qurbon bo'lishi, inson sog'lig'i uchun xavfli holatning vujudga kelishiga sabab bo'luvchi usullar | M. Rustamboyev |
| Boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo'lgan usulda | JK 97-modda 2-qismi "d" bandi,<br>JK 156-modda 3-qismi "a" bandi | boshqa shaxslar hayotiga ham chinakam xavf tug'diruvchi usul (masalan, *odamlar gavjum joylarda o'q otish, portlatish, o't qo'yish, jabrlanuvchidan o'zga odamlar ham foydalanadigan suvni va ovqatni zaharlash, gaz vositasida bo'g'ish* va h.k.) | Oliy sud Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli qarorining 13-bandi |

Jinoyat sodir etish usulini noto'g'ri aniqlash muayyan jinoyatning zaruriy yoki tasnifiy belgisi bo'lsa, hukmni o'zgartirish uchun asos bo'ladi (Niyozova, 2022).

F. Xudaykulov "ko'pchilik uchun xavfli usul" iborasini barcha holatlarga nisbatan bir xilda ishlatish va jinoyat qonunchiligi normalarini unifikatsiya qilishni taklif etadi (Khudaykulov, 2024).

Ko'pchilik uchun xavfli bo'lgan usulda mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazishni sodir etish jinoyat tarkibini obyektiv tomoniga ko'ra og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi. Bu jinoyat obyektiv tomonining fakultativ belgisi hisoblanadi va qilmishni kvalifikatsiya qilishga bevosita ta'sir qiladi. Sud amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 173-moddasi 2-qismi "b" bandi bo'yicha sodir etilayotgan jinoyatlarning 50 foizdan ortiq qismi atrofdagilar uchun xavfli bo'lgan usulda sodir etiladi. Deyarli 90 foiz holatlarda

ushbu jinoyat oʻt qoʻyish, boshqa holatlarda buzish, sindirish kabi usullarda sodir etilishi kuzatiladi.

Oʻzgalar mulkini oʻt qoʻyish yoʻli bilan nobud qilish yoki unga zarar yetkazishning keng tarqalganligi, ushbu usulning yuqori darajadagi xavfliligi va uning ogʻir oqibatlarga olib kelishi inobatga olinib, qonun chiqaruvchi tomonidan bunday usul ogʻirlashtiruvchi holatlar sirasiga kiritilgan. A.I. Boytsov taʼkidlaganidek, oʻt qoʻyish har doim oʻzganing mulkini nobud qilish yoki zarar yetkazishning xavfli usullaridan biri sifatida eʼtirof etib kelingan (Boytsov, 2002).

Oʻzganing mulkini nobud qilish yoki unga zarar yetkazishning ijtimoiy xavfliligi nafaqat usulning oʻzi, balki jinoyat sodir etilgan joy bilan ham belgilanadi. Agar yongʻin yuzaga kelish ehtimoli mavjud boʻlmasa, yaʼni yonish nazorat ostida boʻlsa mulkni nobud qilish usuli umumiy xavfli deb hisoblanmaydi.

Shundan kelib chiqib, olovdan foydalanib ayrim buyumlarni qasddan nobud qilish yoki zarar yetkazish, agar bu harakatlar uning boshqa obyektlarga tarqalishini va odamlar hayoti hamda sogʻligʻiga, shuningdek, oʻzgalarning mulkiga zarar yetkazish xavfini istisno qiluvchi sharoitlarda sodir etilgan boʻlsa, jabrlanuvchiga sezilarli zarar yetkazilgan taqdirda JK 173-moddasi 1-qismi boʻyicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Masalan, JK 173-moddasi 1-qismi boʻyicha fuqaro X.ning harakatlari kvalifikatsiya qilingan boʻlib, u avtomobil yoʻli boʻyidagi dala hududida joylashgan fuqaro B.ga tegishli avtomobilni yoqib yuborgan.

Qonunda atrofdagilar uchun xavfli usulda mulkni nobud qilish yoki zarar yetkazishning yana bir usuli portlatish hisoblanadi. Mazkur usul qisqa vaqt ichida cheklangan hajmda katta miqdordagi energiyaning ajralib chiqish jarayonini anglatadi. Energiya ajralib chiqayotgan hajmni toʻldirib turgan modda portlash natijasida juda yuqori harorat va bosimga ega gazga aylanadi, bu esa atrof-muhitga taʼsir etib, uni harakatga keltiradi yoki buzadi, parchalashga olib keladi va hokazo holatlar keltirib chiqaradi.

Portlashning bir turi shundan iboratki, bunda energiya ajralishi moddaning oʻzida dastlab mavjud boʻlmaydi, balki tashqi manba taʼsirida yuzaga keltiriladi.

Yuridik adabiyotlarda taʼkidlanishicha, mol-mulkni "boshqa umumiy xavfli usul" bilan nobud qilish yoki zarar yetkazish – bu shunday harakat boʻlib, u shaxsga yoki begona mol-mulkka zarar yetkazish xavfini yuzaga keltiradi. Bunday usullarga buzish, sindirish, arralash, yirtib tashlash, choʻktirish, jonivorlarni oʻldirish yoki zaharlash (qishloq xoʻjaligi hayvonlari, boshqa hayvonlar), yoqish, kislota bilan eritish va hokazo kiradi, shuningdek, mulklarni shunday holatga keltirishni oʻz ichiga oladi. Bunda u oʻz foydali xususiyatlarini butunlay yoʻqotadi. Transport avariyalarini tashkil etish kabi harakatlar ham shu kategoriyaga kiradi (Borzenkov, 2011).

JK 8-boʻlimi atamalarining huquqiy maʼnosida koʻpchilik uchun xavfli boʻlgan usulga izoh berilgan boʻlib, unda "koʻp miqdorda zarar yetkazish xavfini tugʻdiradigan boshqa usullar" ham alohida qayd etilgan. Boshqa usul bilan koʻp miqdorda zarar yetkazish xavfini keltirib chiqarish ham koʻpchilik uchun xavfli boʻlgan usul deb baholanishi mumkin. Koʻp miqdorda zarar yetadigan koʻpchilik uchun xavfli har qanday boshqa usullar bilan jinoyat sodir etish jazoni ogʻirlashtiruvchi holat deb tushunishimiz mumkin.

JK 173-moddasi ikkinchi qismni "v" bandiga koʻra mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyati koʻp miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilsa ogʻirlashtiruvchi holat sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

JK atamalarining huquqiy maʼnosi mazmuniga koʻra koʻp miqdor deganda bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha boʻlgan miqdor tushuniladi.

**Muhokama**

Jinoyat obyekti boʻlgan mol-mulk qiymatini aniqlashda uning mulkdor tomonidan orttirilishi (sotib olinishi) holatlariga qarab jinoyat sodir etilgan paytdagi shartnomaviy, ulgurji, chakana, birja yoki bozor narxidan kelib chiqish lozim. Mol-mulkning narxi mavjud boʻlmaganda uning qiymati ekspert xulosasiga koʻra belgilanadi (Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2016). Jinoyat obyekti boʻlgan mol-mulkning bozor bahosini aniqlashda ekspert "Baholash faoliyati toʻgʻrisida"gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standartiga rioya etishi lozim.

Jinoyat qonunida yetkazilgan zararning miqdori ham qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qiladi. Og'irlashtiruvchi holat sifatida JK Maxsus qismi normasida to'g'ridan to'g'ri ko'rsatiladi.

Jinoyat kodeksida yetkazilgan zarar "ancha miqdor", "ko'p miqdorda", "juda ko'p miqdor" kabi turlarga bo'linadi. Uning tegishli moddalarida "ancha miqdorda" (JK 164-m. 2-q. "v" b., 166-m. 2-q. va. h.k.), "ko'p miqdorda" (JK 132-m. 2-q. "v" b., 164-m. 3-q. "b" b., 165-m. va. h.k.), "juda ko'p miqdorda" (JK 132-m. 3-q., 149-m. 2-q. "g" b., 149-1-m. 2-q. "d" b. va. h.k) zarar yetkazishning og'irlashtiruvchi holatlari belgilangan. JK qoidalariga muvofiq "ancha miqdor", "ko'p miqdor" va "juda ko'p miqdor" qiymati bazaviy hisoblash miqdoriga qarab aniqlandi.

*2-jadval*

**Zarar miqdorlarining bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan tasnifi**

| Zarar turi | Baravari | Miqdori |
|---|---|---|
| Ancha miqdor | bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha bo'lgan miqdor | 41 million 200 mingdan 123 million 600 minggacha |
| Ko'p miqdor | bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha bo'lgan miqdor | 123 million 600 mingdan 206 milliongacha |
| Juda ko'p miqdor | bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravari va undan ortiq bo'lgan miqdor | 206 milliondan ortiq |

Mazkur modda og'irlashtiruvchi holatlarining kamchiligi mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish natijasida yetkaziladigan juda ko'p miqdordagi zararlarni qamrab olmagan, shu sababli bunday oqibatlar uchun mazkur modda bo'yicha javobgarlik belgilanishi lozim. Sud-tergov amaliyotida bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravaridan ortiq zarar yetkazish holatlari ham uchrab turibdi.

Sud amaliyotiga misol. "Sudlanuvchi A.T. turmush o'rtog'i X.G. bilan o'rtasidagi oilaviy kelishmovchilik zamirida qaynotasi M.Z. hamda qaynakalari M.X. va X.A. bilan 2024-yil 13-noyabr kuni yashash uyida o'zaro janjallashib, otasi Sh.A. hamda amakisi Sh.A.larni qasddan urib tan jarohati yetkazgani uchun Qumqo'rg'on tumani hududida joylashgan X.M.ga tegishli bo'lgan "D.A.S. Tex" oilaviy korxonasiga qarashli bo'lgan avtomobil ehtiyot qismlari sotiladigan savdo do'koni va u yerdagi yengil turdagi avtomashina ehtiyot qismlarini qasddan nobud qilish maqsadida eshiklarini sindirib, o'zi bilan birga olib kelgan benzin yoqilg'isini do'kon ichiga sepib, savdo do'koni va uning ichidagi ehtiyot qismlarini yoqib yuborib, X.M.ning 1 746 922 735 so'mlik mulkini nobud qilib zarar yetkazgan" (Kumkorgan district court on criminal cases, 2025).

Dastlabki tergov organi tomonidan sudlanuvchi A.T.ning jinoiy qilmish harakatlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 173-moddasi 2-qismining "v" bandi bilan kvalifikatsiya qilingan. Lekin JK 173-moddasi 2-qismi "b" bandi "ko'p miqdor"da zarar yetkazilsa jinoiy javobgarlik keltirib chiqadi. "Ko'p miqdor" deganda bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha bo'lgan miqdor tushuniladi. Jinoyat sodir etilgan vaqtda bazaviy hisoblash miqdori 375 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, jinoyat oqibatida yetkazilgan zarar qiymati 112 million 500 mingdan – 187 million 500 ming so'mgacha bo'lsa ushbu qism bilan malakalanishi lozim. Ushbu jinoyat ishida yetkazilgan zarar miqdori 1 milliard 746 million bo'lib, "juda ko'p miqdor"ni tashkil etadi. Ammo dastlabki tergov organi JK 173-moddasida "juda ko'p miqdor"dagi kvalifikatsiya belgisi mavjud bo'lmaganligi sababli qilmishni JK 173-moddasi 2-qismi "b" bandi bilan kvalifikatsiya qilgan va sud ham sudlanuvchi A.T.ni JK 173-moddasi 2-qismi "b" bandi bilan aybli deb topib 2 yil 6 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlagan (ushbu qism bo'yicha eng og'ir jazo 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi hisoblanadi). Sud jazo tayinlashda uning aybiga iqror va chin ko'ngildan pushaymon ekanligini, muqaddam sudlanmaganligini jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida, jinoyatni g'araz va past niyatlarda sodir qilganligini og'irlashtiruvchi holat sifatida baholagan.

"Juda koʻp miqdorda" zarar yetkazish bilan sodir etiladigan jinoyatlar JK Maxsus qismi tegishli moddalarida ogʻirlashtiruvchi holat sifatida belgilanganligini inobatga olgan holda sud-tergov amaliyoti qilmishni toʻgʻri kvalifikatsiya qilishi uchun JK 173-moddani ikkinchi qismini quyidagicha "v" bandi bilan toʻldirish taklif etiladi.

*V) "juda koʻp miqdorda zarar yetkazilgan boʻlsa"*.

Agar amaldagi JKga shunday mazmundagi qoʻshimcha kiritilsa, bir qator muhim jinoyat-huquqiy va amaliy natijalarga erishish mumkin boʻladi.

Birinchidan, "juda koʻp miqdorda" mezonining alohida kvalifikatsiyalovchi belgi sifatida mustahkamlanishi sud-tergov amaliyotida qilmishni aniq va bir xilda kvalifikatsiya qilish imkonini beradi. Amaldagi tartibda qancha miqdorda zarar yetsa ham notoʻgʻri huquqiy baholashga olib kelmoqda. Taklif etilayotgan norma esa ushbu boʻshliqni bartaraf etadi.

Ikkinchidan, mazkur oʻzgartirish jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini yanada aniqroq differensiyalash imkonini yaratadi. Ya'ni koʻp miqdorda zarar yetkazish bilan "juda koʻp miqdorda"gi zarar oʻrtasida huquqiy farq belgilanishi natijasida jazo choralarini individuallashtirish tamoyili ta'minlanadi. Bu esa jinoyat-huquqiy siyosatda adolat va mutanosiblik prinsiplarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ushbu qoʻshimcha profilaktik ahamiyatga ega boʻlib, mulkka katta miqdorda zarar yetkazishga qaratilgan qasddan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda muhim rol oʻynaydi. Chunki ogʻirlashtiruvchi holat sifatida belgilanishi shaxslarni bunday harakatlardan tiyib turuvchi omil sifatida namoyon boʻladi. Bu esa huquqni qoʻllash amaliyotida yagona yondashuvni ta'minlaydi va subyektiv talqinlarning oldini oladi.

Shu sababli JK 173-moddasi ikkinchi qismini *"v) juda koʻp miqdorda zarar yetkazilgan boʻlsa"* degan band bilan toʻldirish nafaqat jinoyat tarkibining kvalifikatsiyalovchi belgilarini takomillashtiradi, balki sud-tergov amaliyotida huquqni qoʻllash samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim normativ yangilik boʻlib xizmat qiladi.

Qilmish xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsning yoki uning yaqin qarindoshlarining mulkiga nisbatan sodir etilsa, JKning 173-moddasi 3-qismi "a" bandi bilan jinoiy javobgarlikka sabab boʻladi va sanksiyaga muvofiq uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Jinoiy qilmish uncha ogʻir boʻlmagan jinoyatlar toifasiga kiradi. Ushbu qismi uchun jinoyat subyekti 14 yoshdan boshlandi.

Xizmat vazifasini bajarish deganda, har qanday muassasa, korxona va tashkilotda xizmat boʻyicha yuklatilgan vazifani bajarayotgan har qanday shaxsning faoliyati tushuniladi.

Fuqarolik burchini bajarish deganda, fuqaroning har qanday qonuniy faoliyatini tushunmoq lozim. Bular oʻziga yuklatilgan jamoat ishlari, jamiyat yoki ayrim fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan, ya'ni huquqbuzarlikning oldini olish, jinoyat toʻgʻrisida xabar berish, guvohlik berish va hokazo harakatlar boʻlishi mumkin.

Jinoyat ishlari boʻyicha sud hukmlari tahlili shuni koʻrsatadiki, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyatlarining qariyb 35 foizida tajovuz predmeti sifatida jabrlanuvchining uy-joyi namoyon boʻlmoqda. Tahlil natijalariga koʻra, mazkur turdagi jinoyatlarning deyarli har uchinchisi aynan uy-joyni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish shaklida sodir etilgan. Ushbu holat uy-joy daxlsizligi bilan bogʻliq ijtimoiy munosabatlarning jinoiy tajovuzdan himoya qilinishini kuchaytirish zaruratini koʻrsatadi hamda mazkur qilmishlarning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, JK 173-moddasida uy-joy kabi predmetni nobud qilish uchun alohida ogʻirlashtirilgan javobgarlik belgilanmaganligini qayd etish lozim. Ammo uy-joyga tajovuzning oʻzi yuqori ijtimoiy xavf darajasiga ega, chunki bunda jinoyat-huquqiy muhofazaning qoʻshimcha obyekti – insonning uy-joyga boʻlgan konstitutsiyaviy huquqi zarar koʻradi (Republic of Uzbekistan, 2023).

JK 164-moddasi (bosqinchilik), 166-moddasi (talonchilik), 169-moddasi (oʻgʻrilik) jinoyatlarida uy-joyga, omborxona yoki boshqa binolarga gʻayriqonuniy ravishda kirgan holda sodir etish ogʻirlashtiruvchi holat hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 47-moddasiga muvofiq, har

kim uy-joyli bo‘lish huquqiga egaligi, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta’minlanishi kafolatlangan.

Bu konstitutsiyaviy huquq ayniqsa yashash joyidan foydalanish va uni boshqarish bilan bog‘liq bo‘lib, yashash joyiga bo‘lgan mulk huquqiga yaqin turadi. Chunki yashash joyiga bo‘lgan huquq bo‘lmasa, uning daxlsizligi huquqi ham paydo bo‘lmaydi.

Biz, E. Belovning: “Uy-joy ko‘chmas mulkning eng katta obyekti, va shuningdek, odamning biologik mavjudot sifatida birinchi fiziologik-ijtimoiy ehtiyoj predmetidir, shuning uchun ko‘chmas mulk sohasidagi ijtimoiy munosabatlar jinoiy tajovuzdan himoyalanishning o‘ziga xos obyekti hisoblanadi”, – degan fikrini to‘g‘ri deb hisoblaymiz. Ko‘chmas mulkning yuqori qadri va uy-joyga bo‘lgan iste’mol talabi dinamikasi ushbu sohadagi ijtimoiy munosabatlarga jinoiy yo‘l bilan tajovuz qilishning yuqori ijtimoiy xavfini belgilaydi (Belov, 2014).

Qonun chiqaruvchi uy-joyni jinoyat tajovuzi predmeti sifatida alohida ahamiyatga ega obyekt sifatida e’tirof etib, ushbu obyektga nisbatan sodir etilgan o‘g‘rilik, talonchilik yoki bosqinchilik kabi jinoyatlarning, agar ular uy-joyga noqonuniy kirish bilan bog‘liq bo‘lsa, yuqori ijtimoiy xavf darajasiga ega ekanligini belgilaydi. O‘zganing mulkni qasddan nobud qilish yoki zarar yetkazish holatida, agar bu harakat uy-joyini zararlashga qaratilgan bo‘lsa, ayblanuvchi harakatlarini zararning sezilarli darajada yetkazilishi belgisi bo‘yicha malakalash kerak. Faqatgina jabrlanuvchi yashash joyining yo‘q qilinishi, ayblanuvchining harakatlarini og‘ir oqibatlar kabi boshqa belgi bilan malakalash imkonini beradi.

Yuzaga kelgan vaziyatni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, uy-joyni yo‘q qilish yoki unga shikast yetkazish qonun chiqaruvchi tomonidan jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy zarar sifatida baholanadi, bunda aybli shaxs mazkur jinoyatni sodir etish jarayonida qo‘shimcha huquqiy himoya obyekti – shaxsning konstitutsiyaviy uy-joyga bo‘lgan huquqiga tajovuz qilganligi e’tibordan chetda qoladi.

Bu esa mazkur qilmishning yuqori ijtimoiy xavf darajasini belgilovchi muhim jihatdir. Yuridik adabiyotlarda to‘g‘ri ta’kidlanganidek, qonun chiqaruvchi tomonidan bunday konstitutsiyaviy huquq – uy-joyga bo‘lgan huquqni buzish holatiga yetarli huquqiy baho berilmagan.

2021–2025-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarida JK 173-moddasi bo‘yicha ko‘rilgan sud hukmlarini tahlil qilish jarayonida har yili nobud qilingan yoki zarar yetkazilgan uy-joylar ulushi 2021-yildagi 10,6 foizdan 2025-yilga kelib 30,7 foizgacha oshgani ma’lum bo‘ldi. Ushbu jinoyatlarni sodir etishning eng keng tarqalgan usuli (60 foizdan ortiq) yondirishdir. Bunday harakatlar ijtimoiy xavfning yuqori darajasiga ega bo‘lib, nafaqat mulk huquqiga tajovuz qiladi, balki jabrlanuvchini ba’zi hollarda yashash huquqidan mahrum qiladi. Shikastlangan mulkni ta’mirlash va uni dastlabki holatiga keltirish uchun katta moddiy xarajatlar talab etiladi. Agar mulk butunlay nobud qilingan bo‘lsa, uni to‘liq qayta tiklash uchun sarf qilinadigan xarajatlar bir necha barobar ortadi.

Mazkur jinoyat tarkibi doirasida uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan qilmishlarning huquqiy tabiati alohida ilmiy tahlilni talab etadi. Chunki bunday holatlarda jinoyat oddiy ishtirokchilik doirasidan chiqib, oldindan rejalashtirilgan, muvofiqlashtirilgan va barqaror jinoiy tuzilma faoliyati sifatida namoyon bo‘ladi, bu esa uning ijtimoiy xavflilik darajasini sezilarli darajada oshiradi.

JK 29-moddasining to‘rtinchi qismiga muvofiq, ikki yoki undan ortiq shaxsning jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishi uyushgan guruh deb e’tirof etiladi. Shu ma’noda, M. Usmonaliyevning ilmiy pozitsiyasiga ko‘ra, uyushgan guruh quyidagi asosiy belgilar bilan tavsiflanadi: birinchidan, ikki yoki undan ortiq shaxslarning oldindan jinoiy faoliyatni amalga oshirish maqsadida birlashishi; ikkinchidan, guruhning rahbarga ega bo‘lishi; uchinchidan, jinoyatni sodir etish jarayonida guruh a’zolarining faoliyati rahbar tomonidan tartibga solinishi hamda ularning harakatlari rahbar irodasiga bo‘ysundirilganligi; to‘rtinchidan, har bir a’zoning jinoiy faoliyatdagi vazifalari oldindan aniq belgilab qo‘yilganligi (Usmonaliyev, 2010).

Ushbu nazariy yondashuvdan kelib chiqib, uyushgan guruh ishtirokchilikning eng xavfli shakllaridan biri sifatida e'tirof etiladi. U oddiy yoki hatto murakkab ishtirokchilikdan o'zining barqaror tashkiliy tuzilmasi, qat'iy ichki intizomi, funksional vazifalarning aniq taqsimlanishi hamda markazlashgan boshqaruv tizimi bilan farqlanadi. Bunday guruhda jinoyatni sodir etish jarayoni tasodifiy emas, balki oldindan ishlab chiqilgan reja asosida amalga oshiriladi.

Sud-tergov amaliyoti tahlili shuni koʻrsatadiki, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyatlari ayrim hollarda aynan uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini koʻzlab sodir etilmoqda. Bu esa jinoyatning nafaqat moddiy oqibatlarini, balki uning ijtimoiy xavflilik darajasini ham keskin oshiradi. Shu bois Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 173-moddasi 3-qismi "b" bandida uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini koʻzlab sodir etilgan qilmishning jazoni ogʻirlashtiruvchi holat sifatida belgilanishi ilmiy va amaliy jihatdan asosli yondashuv hisoblanadi.

Mazkur normaning mavjudligi jinoyatni toʻgʻri kvalifikatsiya qilish, ishtirokchilik shakllarini aniq ajratish hamda sud amaliyotida yagona huquqiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan yanada aniqroq javobgarlik mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati ham mavjud.

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 173-moddasi bo'yicha sud tahlillari shuni koʻrsatadiki, mazkur moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyatining javobgarlikni ogʻirlashtiruvchi holatlari nazarda tutilgan boʻlsa-da, ushbu qilmish oqibatida odam oʻlishi yoki boshqa ogʻir oqibatlar yuzaga kelgan holatlar alohida kvalifikatsiyalovchi belgi sifatida mustahkamlanmagan. Vaholanki, sud-tergov amaliyotini oʻrganish natijalari mazkur jinoyatni atrofdagilar uchun xavfli usulda sodir etish jarayonida inson hayoti va sogʻligʻiga jiddiy zarar yetkazilishi, ayrim hollarda esa ehtiyotsizlik orqasida odam oʻlimi yoki odam oʻldirishga suiqasd qilish holatlari ham uchrayotganligini koʻrsatmoqda.

Mazkur holat jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini sezilarli ravishda oshiradi hamda inson hayoti va sogʻligʻi kabi eng muhim ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilish bilan tavsiflanadi. Shu sababli JK 173-moddasida odam oʻlishi yoki boshqa ogʻir oqibatlar kelib chiqishini alohida ogʻirlashtiruvchi belgi sifatida jinoyat qonunida mustahkamlash jinoyatni toʻgʻri kvalifikatsiya qilish, jazo tayinlashda adolatlilik va differensiallik prinsiplarini ta'minlash, shuningdek, sud-tergov amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, mazkur boʻshliqni bartaraf etish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 173-moddasini yangi toʻrtinchi qism bilan toʻldirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, mazkur moddani toʻrtinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

*"Oʻsha harakatlar:*

*a) odam oʻlishiga yoki boshqa ogʻir oqibatlarga sabab boʻlgan boʻlsa, —*

*uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yildan oʻn yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi."*

Mazkur normaning jinoyat qonunchiligiga kiritilishi mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyatlarining yuqori ijtimoiy xavflilik darajasiga ega shakllariga nisbatan jinoiy-huquqiy ta'sir choralarini kuchaytirish, inson hayoti va sogʻligʻining ustuvor himoyasini ta'minlash hamda huquqni qoʻllash amaliyotida mavjud ayrim kollizion holatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

**Xulosa**

Mazkur maqolada Oʻzbekiston Respublikasi JKning 173-moddasida nazarda tutilgan mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyatining javobgarlikni ogʻirlashtiruvchi belgilari jinoyat-huquqiy nuqtayi nazardan kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida jinoyat huquqi nazariyasida shakllangan umumiy yondashuvlar mazkur jinoyat tarkibiga tatbiqan koʻrib chiqildi hamda ogʻirlashtiruvchi holatlarning huquqiy tabiati ularning oʻziga xos xususiyatlari asosida aniqlashtirildi.

Olib borilgan tahlillar shuni koʻrsatdiki, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyati fuqarolarning mulkiy huquqlari hamda mulk daxlsizligi bilan bogʻliq ijtimoiy munosabatlarga bevosita tajovuz qiluvchi yuqori darajadagi ijtimoiy xavfli qilmishlar sirasiga kiradi. Mazkur jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

uning oddiy tarkibda emas, balki og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilishi bilan sezilarli darajada ortadi.

Tadqiqot natijasida JK 173-moddasida nazarda tutilgan og'irlashtiruvchi belgilar, jumladan, millatlararo yoki irqiy adovat yoxud diniy taassublar zamirida sodir etish, atrofdagilar uchun xavfli usuldan foydalanish, ko'p miqdorda zarar yetkazish, xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxs yoki uning yaqin qarindoshlarining mulkiga tajovuz qilish hamda uyushgan guruh va uning manfaatlarini ko'zlab sodir etish – jinoyatning og'irlashtiruvchi asosini tashkil etishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Shuningdek, og'irlashtiruvchi holatlar jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilarini murakkablashtirib, qilmishning ijtimoiy xavfliligini yanada kuchaytirishi aniqlandi. Xususan, uyushgan guruh tomonidan sodir etilishi jinoyatning rejalashtirilganligi, barqarorligi va jamoaviy xavfini oshirishi bilan alohida ajralib turadi, bu esa jinoyat-huquqiy baholashda muhim mezon sifatida xizmat qiladi.

Mazkur yo'nalishdagi tahlillar natijasida ayrim og'irlashtiruvchi belgilarni qonunchilikda yanada aniqlashtirish hamda JK 173-moddasini takomillashtirish maqsadida yangi og'irlashtiruvchi holatlarni kiritish taklifi ilgari surildi. Xususan, jinoyat oqibatida juda ko'p miqdorda zarar yetkazish va odam o'limi yoki boshqa og'ir oqibatlarning kelib chiqishi holatini alohida og'irlashtiruvchi belgi sifatida jinoyat qonuni darajasida mustahkamlash zarurligi asoslab berildi.

Shunday qilib, JK 173-moddasi doirasidagi og'irlashtiruvchi belgilarni tizimli va kompleks tahlil qilish sud-tergov amaliyotida birxillikni ta'minlashga, jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligini to'g'ri baholashga hamda mulkiy huquqlarni samarali huquqiy himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida aniqlangan nazariy va amaliy masalalar ushbu jinoyat tarkibining murakkab huquqiy tabiatini ifodalaydi hamda jinoyat huquqi fanida mulk daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarni rivojlantirishga zamin yaratadi.

## REFERENGES

Abzalova, X. M. (2020). *Odam o'ldirishga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari* [Criminal-legal and criminological aspects of combating homicide] (Abstract of Doctoral dissertation). Tashkent State University of Law.

Belov, E. V. (2014). *Moshennichestvo s nedvizhimostyu v zhilishchnoy sfere: sposoby sovershenstvovaniya, problemy kvalifikatsii* [Fraud with real estate in the housing sector: ways of improvement, qualification problems] (M. G. Kadnikov, Ed.). IPR Media. https://www.iprbookshop.ru/35748

Borzenkov, G. N. (Ed.). (2011). *Rossiyskoe ugolovnoe pravo [*Russian criminal law*].* Prospekt.

Boytsov, A. I. (2002). *Prestupleniya protiv sobstvennosti* [Crimes against property*].* Legal Center Press.

Ikramov, Sh. T., Qabulov, R., & Otajonov, A. (2016). *Jinoyat huquqi: Maxsus qism* [Criminal Law: Special part]. Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.

Khudaykulov, F. X. (2024). Qilmishni kvalifikatsiya qilishda jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarining ahamiyati [The importance of optional elements of the objective side of crime in qualification of acts]. *Criminology and Criminal Justice, 2*, 29.

Kumkurgan District Court on Criminal Cases. (2025). *Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan internet tarmog'ida e'lon qilingan sud qarorlari* [Court decisions published on the Internet by criminal courts]. Public.sud.uz. https://public.sud.uz/report/CRIMINAL

Niyozova, S. S. (2022). Qasddan odam o'ldirishning jinoyat-huquqiy jihatlari [Criminal-legal aspects of intentional homicide]. *Review of Law Sciences, 4*, 101–106.

Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2004, September 24). On judicial practice in cases involving intentional homicide (Resolution No. 13). https://lex.uz/uz/docs/-1455961

Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2016, December 27). On judicial practice concerning the application of legislation on compensation for property damage caused by a crime (Resolution No. 26). https://lex.uz/docs/-3115385

Republic of Uzbekistan. (2023, April 30). Constitution of the Republic of Uzbekistan. https://constitution.uz/en

Republic of Uzbekistan. (1994, September 22). Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. https://lex.uz/docs/-111453

Rustamboyev, M. X. (2018). O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan.

Usmonaliyev, M. (2010). Jinoyat huquqi *[Criminal Law].* Yangi asr avlodi.

Zakirova, U. A. (2023). Jinoyat motiviga ko‘ra qilmishni kvalifikatsiya qilishning nazariy va amaliy muammolari [Theoretical and practical problems of qualifying acts based on criminal motive] (Abstract of Doctoral dissertation). Tashkent State University of Law.

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

**2026-yil maxsus son**

VOLUME 10 / SPECIAL ISSUE / 2026
DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.SI.